

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

tizimining falsafiy jihatlar.....	106
-----------------------------------	-----

SIYOSAT

F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat siyosatining roli	110
J.S.Sotvoldiyev	
Sharq va G'arb siyosiy tamaddunida tinchlik va xavfsizlik masalasi talqini	114
T.A.Azizov	
Xorijiy tajribalar asosida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari.....	119
A.To'xtasinov	
Inson manfaatlarini e'tirof etuvchi konstitutsiya	122
F.R.Ravshanov, X.Z.Muminovich	
Tarixiy geosiyosatda Markaziy Osiyo	128

TARIX

O.V.Mahmudov	
"O'rta asr arabshunoslik tarjima markazlari": tushuncha va muomalaga kiritishning ilmiy asoslari	136
Ф.Т.Баитова	
Политическая нестабильность как фактор возникновения народного восстания в Кокандском ханстве (1873-1876 гг.).....	147
X.X.Mamajonov	
Turkiya Respublikasidagi Temurshunoslik taraqqiyotida xorijdan ko'chib kelgan ziyolilarning o'rni	153
I.R.Tishabayeva	
Sovet davrida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi va infratuzilmasining shakllanishi (1970–1990-yillar).....	157
X.L.Xolmirzayev	
"Jome ul-havodis" asari qo'lyozmalari va ularning tavsifi	162
O.B.Nizomiddinov	
Sovet davrida (1920–1930-yillar) Farg'ona vodiysida muzey va teatrlar faoliyati: madaniy o'zgarishlar tahlili	167
Sh.B.Muhiddinova	
Buxoro amirligidagi ijtimoiy hayot masalalari ingliz Aleksandr Byorns talqinida	171
M.A.Umarov	
Afg'oniston va Eronning sovet davlati bilan iqtisodiy sohadagi munosabatlarining qisqacha mazmun va mohiyati	176
S.G'.Nigmatova	
O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalarining shakllanishi xususiy o'quv markazlar faoliyati misolida	180
J.Axmedov	
Some considerations on the intangible cultural heritage of Karakalpakstan	184
X.P.Jurayev	
Xiva xonligi qishloq xo'jaligida donli ekinlar va ularga doir ayrim mulohazalar	189
H.S.Yusupov	
Xorazm Xalq Sovet Respublikasida "Madrasalar islohoti" dasturining qabul qilinishi va uning oqibatlarini	193
M.Q.Tolibboyev	
Xalq dostonlarida otlarning harbiy ishidagi o'rni (tarixiy-elshunoslik tahlili).....	197
X.X.Mamajonov	
Mustafo Kamol Otaturk kundaligida Amir Temur siymosi	201



UO'K: 37.018.43:37.091.3(575.1)

O'ZBEKISTONDA NODAVLAT TA'LIM MUASSASALARINING SHAKLLANISHI XUSUSIY O'QUV MARKAZLAR FAOLIYATI MISOLIDA**СТАНОВЛЕНИЕ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЧАСТНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЦЕНТРОВ****THE FORMATION OF NON-STATE EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN ON THE EXAMPLE OF THE ACTIVITIES OF PRIVATE EDUCATIONAL CENTERS**

Nigmatova Sadoqatxon G'ulomaxmadovna 
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalarining shakllanishi, jumladan "Le CRAYON" va "Kristall" xususiy o'quv markazi faoliyatining misolida ochib berilgan. Shuningdek, "Kristall" xususiy o'quv markazida dars mashg'ulotlarining samaradorligini oshirishdagi o'quv-amaliy metodlar, raqamli texnologiyalardan foydalanish, hamda ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik ishlarini olib borilishi, o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish omillari tarixiy nuqtai nazardan tahlilga tortilgan.

Аннотация

В данной статье описывается становление негосударственных образовательных учреждений в Узбекистане, в том числе деятельность частного образовательного центра «Le CRAYON» и «Kristall». Также в историческом аспекте анализируются учебно-практические методы повышения эффективности занятий в частном образовательном центре «Kristall», использование цифровых технологий, а также реализация сотрудничества с родителями, факторы усвоения предметов учащимися.

Abstract

This article describes the formation of non-state educational institutions in Uzbekistan, including the activities of the private educational center "Le CRAYON" and "Kristall". Also, the educational and practical methods of increasing the effectiveness of classes in the private educational center "Kristall", the use of digital technologies, as well as the implementation of cooperation with parents, and the factors of students' mastery of subjects are analyzed from a historical perspective.

Kalit so'zlar: xususiy ta'lim, o'quv markazi, zamonaviy metodika, raqamli texnologiya, ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash, ta'lim monitoringi, ichki nazorat, tahlil.

Ключевые слова: частное образование, образовательный центр, современная методика, цифровые технологии, работа с родителями, образовательный мониторинг, внутренний контроль, анализ.

Key words: private education, educational center, modern methodology, digital technology, working with parents, educational monitoring, internal control, analysis.

KIRISH

Jahon miqyosida globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi kunda sifatli va samarali ta'lim tizimini saqlab qolish, uni rivojlantirish eng asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Ta'lim sohasida tizimli islohotlar o'tkazib, uni doimiy takomillashtirib borish jahon miqyosida davlatlar siyosatida kun tartibidagi vazifaga aylanib bormoqda. Bu borada ta'limning rivojlanish tarixini, erishilgan natijalarni hamda ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini o'rganish amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu o'rinda, ta'lim sohasining sifati, moddiy-texnik bazasi, qamrovi kabi mezonlar mamlakatlarning taraqqiy etganlik darajasini belgilovchi omillardan biri sifatida jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda.

Dunyoning qator ilmiy tadqiqot markazlarida ta'lim sohasining yo'nalishlari, bosqichlari, uning mazmuni va sifatidagi uyg'unlikni ta'minlash borasidagi yutuqlari, samaradorligini oshirish muammolarini o'rganish bo'yicha salmoqli ilmiy ishlar qilinmoqda. Ayniqsa, ta'lim sifatini baholashda Singapur, Finlandiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlar tajribasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ta'lim sohasini tizimli takomillashtirish, uning mazmuni,

TARIX

mohiyati, jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va rivojlanish tarixini chuqur o'rganish, tadqiqotlar olib borish tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ta'lim sohasi tubdan isloh qilinib, tizimda keng miqyosda o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, ta'lim tizimini mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Tizimga davlat byudjetini yo'naltirish bilan bog'liq munosabatlar takomillashtirildi. Shuningdek, jismonan barkamol, ma'nan yetuk avlodni tarbiyalash zarurati muhim ahamiyat kasb etdi. Zero, "Buyuk tarixda hech narsa izziz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir". Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'qituvchi-ziyolilarning ma'suliyatli va sharaflil mehnati xususida gapirib, "Biz xalqimizning eng katta boyligini, millionlab farzandlarimizning taqdirini, O'zbekiston istiqbolini sizlarga ishonib toshiramyiz. Jamiyatdagi bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, oliygohlarning professor-o'qituvchilari va ilmiy-ijodiy ziyolilarni butun biz intilayotgan Uchunchi Renessansning to'rt tayanch ustuni deb e'tirof etmoqdamiz" degan edilar [1:2]. Bugun ta'lim sohasidagi islohotlarning tarixiy-siyosiy qirralarini anglash, o'zgarishlar mohiyatini tarixiy misollar asosida chuqur tahlil qilish, ularga ilmiy jihatdan baho berish dolzarblilik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 26-maydagi PF-79-son «Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari ta'lim sohasini yangi bosqichga ko'tardi. Yuqoridagi sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosi doirasida bugungi kunda O'zbekistonda xususiy ta'lim muassasalarining o'rni va ahamiyati ortib bormoqda.

Keyingi yillarda xususiy o'quv markazlar va ta'lim muassasalari sonini keskin ortib borishi mazkur sohada o'qitish samaradorligi va zamonaviy pedagogik uslublarning amalda qo'llanilishi hamda sog'lom raqobat muhitini paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Nodavlat o'quv markazlarida to'g'ri yo'naltirilgan yondashuv samarali zamonaviy uslublarni joriy etish [2:3] va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashni tashkil etish orqali ta'lim samaradorligini sezilarli darajada ortmoqda. Birgina misol Farg'ona viloyati Farg'ona tumanida joylashgan "Le CRAYON" nodavlat ta'lim muassasasining 2020/2021 o'quv yilidagi bitiruvchilarining 98 foizi oliy o'quv yurti talabalari bo'ldi [3:4].

Xususiy ta'lim muassasalari faoliyati aholiga ham juda ko'p qulayliklarni taqdim etmoqda. Masalan, shahar va aholi gavjum bo'lgan hududlarda, ishlaydigan ota-onalar uchun nodavlat ta'lim muassasalarida farzandlarining issiq ovqat va transport bilan ta'minoti afzal bo'lmoqda. Shuningdek, nodavlat ta'lim muassasalarida o'quvchilarni darsdan bo'sh paytlaridan unumli foydalangan holda qo'shimcha o'quv mashg'ulotlariga jalb qilish imkoniyatini borligi ham ota-onalar uchun ma'qul kelmoqda. Shu bilan birgalikda dars mashg'ulotlaridan keyin alohida o'qituvchining o'quvchiga biriktirilganligi fanni o'zlashtirishda paydo bo'ladigan savollar, masalalar, muammolarni yakkatartibda ishlash orqali bartaraf etish imkoniyatini beradi. Ayni jihatlar "Kristall" nodavlat ta'lim muassasida namoyon bo'ldi.

Xususiy maktab qoshida o'quv markaz tashkil etilganligi, har haftada o'quvchilarning fanni o'zlashtirish bo'yicha test sinovi o'tkazilishi va natijalar tahlilini muntazam ravishda olib borilishi ayni muassasalarga bo'lgan ehtiyojni ortishiga olib kelmoqda. Shuningdek, unda kimyo, biologiya fanlar yo'nalishidagi ta'limda bolaning qobiliyatiga qarab yakka tartibda ishlash metodi o'quvchilarni oliy ta'lim uchun bo'ladigan testlarga 100 foizlik tayyorlovni ta'minlab berdi. Qolaversa, moliyaviy jihatdan to'lov kursining narxini yillar davomida o'zgarmas turg'un holatda ushlab turilishi (2005-yilda bir yillik to'lov narxi 2 mln. 720 ming so'm bo'lgan bo'lsa, 2020-yilda ham shu narx saqlab qolindi) muassasaga bo'lgan talabning doimiylikini ta'minladi [4:14].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot ishida asosan tarixiy-qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni o'rganish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, huquqiy-me'yoriy hujjatlar va statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Masalan, mustaqillikning dastlabki yillarida yozilgan bir qator monografiya, tadqiqotlar mazkur mavzuga nisbatan yaqinligi bilan ajralib turadi. Jumladan, mazkur yillarda amalga oshirilgan T.Hatamovning "O'zbekiston umumta'lim maktablari

ta'lim islohotlari tizimida: muammolar yechimi va istiqboli (1991–2009-yy.)" mavzusidagi dissertatsiyasida viloyati xalq ta'limi tizimiga oid ayrim ma'lumotlar keltirilib, unda asosan, umumta'lim maktablaridagi yangilanishlar va ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashdagi islohotlar tarixiylik hamda tizimlilikdan kelib chiqqan holda yondashilgan [5:162]. Tadqiqot mavzusini yoritishda xizmat qiluvchi O'Abdullayev, N.Sharipovalarning ilmiy izlanishlarida Farg'ona vodiysida mustaqillik yillaridagi ta'lim sohasidagi amalga oshirilgan islohotlar va erishilgan yutuqlar haqida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, pedagogika yo'nalishida yozilgan N.Nazirova, D.Mirxo'jayevlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega [6:55,153]. Mazkur ilmiy izlanishlar o'quvchilarning bilim ko'nikmalarini oshirish, ta'lim berishga oid zamonaviy pedagogik texnologiyalar, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda kadrlar tayyorlashning pedagogik asoslarini shakllantirish bo'yicha olib borilgan ishlarni o'z ichiga olishi bilan ham ahamiyatlidir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tadqiqotni yoritishda o'rganilgan adabiyotlar muayyan bir davrga xos ekanligi va ularda nodavlat ta'lim muassasalari faoliyati hamda bu borada olib borilgan islohotlar tarixiy nuqtayi nazardan yaxlit yoritilmagan.

TAHLIL VA MUHOKAMA

Har bir sinfda o'quvchi yoshlar bilan alohida ishlash imkoniyatining borligi o'quv markazning eng muhim yutuqlaridan biri sanaladi. Shuningdek sinflarda o'quvchilar soning 20 nafardan oshmasligi o'qituvchiga o'tgan dars mashg'ulotlarini barobar so'rash imkoniyatini beradi. Hamda tajribali, malakali pedagoglarning xususiy ta'lim muassasalariga tanlov asosida qabul qilinishi ushbu muassasalarining sifati oshib borishida ahamiyati kattadir [7:15].

Shu bilan birga tabiiy fanlar o'qitilishida ta'lim yo'nalishi rus tilida olib boriladigan guruhlar uchun ruscha ta'lim shaklining mavjudligi shu ta'lim istagidagi ota-ona va o'quvchi yoshlarni jalb qilgan. Natijada kimyo va biologiya fanlari negizida o'quvchilarni yuqori saviyada tayyorlab berish imkoniyatini beradi.

O'quv markaz dastlabki faoliyatini 2009-yilda Farg'ona davlat universiteti qoshidagi akademik litseyda umumta'lim maktab o'quvchilari uchun qo'shimcha darslar ya'ni pullik repetitorlik xizmatlarini ko'rsatish bilan boshlagan [8] Markaz dastlab litsey binosida tashkil topgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan o'z o'quv binosiga [9:16] ega bo'ldi.

2014-yilga kelib o'quv markaz sifatida 15 ta o'qituvchi pedagoglar bilan o'z faoliyatini boshladi. Shu yili oliy ta'lim muassasalariga o'qishga 400 nafar abituriyentlar tayyorgalik ko'rdi [10].

Bunday samaradorlik, albatta, pedagogik yondashuvlarning to'g'ri tanlanganligida edi [11:3]. Ushbu markaz o'zining bosib o'tgan yo'lida yani repetitorlikdan xususiy maktabgacha individual va jamoaviy ishlash usuli asosida darslar, mashg'ulotlar tashkil etildi. Hozirda 7-11 sinflar uchun alohida ta'lim rejasi ishlab chiqilgan bo'lib haftaning har shanba kuni test tahlili va muntazam ravishda test natijalarni ota-onalar bilan birgalikda tahlil qilib borish asosida olib borilmoqda. Shuningdek "Estafeta tayoqchasi" metodining mavjudligi ushbu o'quv markazning boshqa markazlardan afzal tomonlaridan biridir. Ya'ni hozirgi kundagi xususiy maktab va o'quv markazi faoliyatida shu tizim orqali ishlab kelindi. Internet sahifalari yoki ko'cha bannerlari orqali emas balki jonli-targ'ibot asosida kundan -kunga o'quvchilarning qamrovi ortib oliy ta'lim muassasalariga davlat grandisi asosida kirish foizlari o'sib bordi [12:15]. Natijada talabgorlarning soni ko'payib bordi. Bu jarayon esa, o'quv markaz faoliyatini xususiy maktab faoliyatiga o'zgarishiga olib keldi. Bu birinchi tomondan talabgor o'quvchilarni nazorat qilish imkoniyatini bersa ikkinchi tomondan esa, davlat maktablarida o'tiladigan fanlar kesimidagi darslardan ajralmagan holda o'qish imkoniyatini yaratib berdi.

XULOSA

O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalarining shakllanishi jarayonida Farg'ona viloyati va shahridagi xususiy o'quv markazlar mazkur sohadagi ijobiy tajriba sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Mazkur maqolada olib borilgan tahlillar natijasida, samarali ta'lim berishning quyidagi omillarini ko'rishimiz mumkin.

1) o'qituvchi berilgan bilimni savol-javob orqali tekshirib olishi emas balki o'quvchidagi kreativlik qobiliyatini individ ishlash orqali aniqlash mumkinligini;

2) jamoaviy yondashuv asosida har bir o'quvchi bilan hamkorlikda ishlash muhimligini;

3) pedagog xodimlar, jamoa xodimlari va o'quvchilar o'rtasida ochiq muloqotning mavjudligi o'quvchilar orasidagi stressing bo'lmasligida asosiy yondashuv ekanligi;

4) natijaviylikni oshirish uchun o'quvchilar orasida muntazam rag'batlantirish va motivatsiya berish orqali ularga ma'naviy yordam berilayotganligi;

TARIX

5) ota-onalar bilan muntazam aloqada bo'lish, ular bilan hamkorlikda ishlashning mavjudligi mazkur masalaning ahamiyatli tomonidir.

Hozirgi kunda xususiy o'quv markazlar yoshlarni bilimga bo'lgan ehtiyojini qondirib qolmay, balki sifatli bilim berish va nodavlat ta'lim muassasalari orasida sog'lom raqobatni ham ta'minlab kelmoqda. Ta'lim muassasalarini zamonaviy jihozlar bilan ta'minlashga alohida ahamiyat berilayotganligi tahsinga sazovordir [13:2]. Yangi avlod, yangi tafakkur sohib va sohibalarini tarbiyalash ma'sulyati esa tinimsiz mehnatni, izlanishni talab etadi [14:5]. Davlat yoki nodavlat ta'lim muassasalari o'qituvchi xodimlari har doim talabchan, tashabbuskor, dunyoqarashi keng, kreativlik qobiliyatli, ziyrak kuzatuvchi-yorqin yulduz bo'lishlikni sog'lom raqobat muhiti shakllantirib, rivojlantirib pedagoglarning yuksalishiga olib kelmoqda [15:48].

Yakuniy xulosa sifatida "Kristall" o'quv markazi o'z faoliyatini hozirgi kunda xususiy maktab sifatida davom ettirayotganligi Yangi O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalarining rivojlanishining yorqin namunasi bo'lib, bu boshqa o'quv markazlari uchun ham namunaviy model bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu asosda nodavlat ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lida shunday markazlarni ko'paytirib, metodik va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlab, innovatsion, natijador ta'lim berish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu markaz faoliyati O'zbekistonda nodavlat ta'limning istiqbolli yo'nalishlaridan biri ekanini isbotlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni, 2020-yil 23-sentabr. O'RQ-637-son
2. Мирзиёев Ш.М. Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чоратадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2017 йил 20 апрель // Халқ сўзи. 2017 йил 21 апрель.
3. Bobojonov A. Muallimlar mahorati. – "Farg'ona haqiqati". 2024. – №40.
4. Yunosov A. - "Kristall" xususiy maktabi ish boshqaruvchisi. Quva tumani Yorqin yulduz. Madaniyat mfy 47-uyda istiqomat qiladi. 14.05.2025
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Hatamov T. O'zbekistonda ta'lim tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 162 b.
6. Hatamov T. O'zbekistonda ta'lim tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 162 b.
7. Абдуллаев Ў. Ўзбекистонда педагогик кадрлар тайёрлаш тизимидаги ютуқ ва муаммолар (1991–2018 йй.). Тарих фан. бўй. фал. док. (PhD) ... дисс. авторефер. – Қарши, 2021. – 55 б.; Шарипова Н. Фарғона водийси ўқитувчиларининг кундалик ҳаёти (1966–1991 йиллар). Тарих фан. бўй. фал. док. (PhD) ... дисс. – Андижон, 2022. – 153 б.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.12.2019 yildagi 1028-son, <https://lex.uz/docs/-4664567>
9. Abdurahmonova S. Ehtirom sizga Ustoz. – "Farg'ona haqiqati", 2015, - №77.
10. O'ktamova F. Ta'lim muassasalarida quality sharoit va imkoniyatlar – "Farg'ona haqiqati", 2015. – №78.
11. Qulmatov E. Maktabni rivojlantirish-mamlakat istiqboli. – "Farg'ona haqiqati", 2009. – №79.
12. Teshaboyev Z. Ilm maskanlari rivoji. "Farg'ona haqiqati", 2009. №79.
13. Kristall xususiy maktabi yillik hisobotlari, 2014-2024.
14. Yunosov A. - "Kristall" xususiy maktabi ish boshqaruvchisi. Quva tumani Yorqin yulduz. Madaniyat mfy 47-uyda istiqomat qiladi. 14.05.2025
15. Ходжаев Б., Қодиров Д. Ўзбекистонда нодавлат олий таълим муассасалари фаолиятини такомиллаштириш масалалари // Иқтисод ва молия. - 2020. - №3. - Б. 45-52.